



Mengliyeva Gavhar Ibragimovna

Termiz davlat pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi 2-kurs magistri
“Volshebniy zamok” NMTT direktori

Annotatsiya

Maktabgacha ta'limda bolalarning ijtimoiylashuv ko'nikmalarini, ularning hissiy bilish imkoniyatlarini kengaytirish, o'zining va tengdoshlarining hissiy holatini anglash qobiliyatlarini rivojlantirish, kattalar bilan munosabatni to'g'ri tashkil eta olish, o'zini anglash, shaxslararo muloqotda emotsional ta'sir imkoniyatlarini o'zlashtirish va kengaytirish yo'nalishidagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda. Mazkur maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar ijtimoiylashuvi omillari borasida olib borilgan ilmiy tadqiqotlar va xulosalar borasida fikr-mulohazalar yuritilgan.

Kalit so'zlar: bola, ijtimoiylashuv, tarbiya, jamiyat, xulq-atvor, tarbiyasi qiyin, xususiyat, amallar, vositalar.

Аннотация

В дошкольном образовании особое внимание уделяется исследованиям, направленным на расширение навыков социализации детей, их эмоциональных познавательных возможностей, развитие умений осознавать свое эмоциональное состояние и эмоциональное состояние сверстников, умения правильно организовывать отношения со взрослыми, самореализацию, овладение и расширение возможностей эмоционального воздействия в межличностном общении. В данной статье даны отзывы о проведенных научных исследованиях и выводах по факторам социализации детей дошкольного возраста.

Ключевые слова: ребенок, социализация, воспитание, общество, поведение, трудное воспитание, особенности, действия, средства.

Annotation

In preschool education, special attention is paid to research aimed at expanding children's socialization skills, their emotional cognitive capabilities, developing the ability to be aware of their emotional state and the emotional state of their peers, the ability to properly organize relationships with adults, self-realization, mastering and expanding the possibilities of emotional impact in interpersonal communication. This article provides feedback on the scientific research and conclusions on the factors of socialization of preschool children.

Keywords: child, socialization, upbringing, society, behavior, difficult upbringing, features, actions, means.

Kirish. Jahonda maktabgacha yoshdagi bolalarga ta'lim va tarbiya berish, ularning aqliy imkoniyatlarini kengaytirish, sog'lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ularni ijtimoiy-hissiy rivojlantirish mexanizmlari tadbiq etilmoqda. Shu borada 2015-yil Janubiy Koreyada o'tkazilgan Butunjahon forumida ta'limning barqaror taraqqiyotini ta'minlovchi “Ta'lim-2030” Inchxon deklaratsiyasi qabul qilindi va butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish dolzarb vazifa sifatida belgilangan edi[1].

Maktabgacha ta'limda bolalarning ijtimoiylashuv ko'nikmalarini, ularning hissiy bilish imkoniyatlarini kengaytirish, o'zining va tengdoshlarining hissiy holatini anglash qobiliyatlarini rivojlantirish, kattalar bilan munosabatni to'g'ri tashkil eta olish, o'zini anglash, shaxslararo muloqotda emotsional ta'sir imkoniyatlarini o'zlashtirish va kengaytirish yo'nalishidagi tadqiqotlarga alohida e'tibor qaratilmoqda[6].

Jahon ta'lim va ilmiy-tadqiqot muassasalarida maktabgacha yoshdagi bolalarning empatiyasi, refleksiv xususiyatlari, ijtimoiylashuvi, shuningdek, ijtimoiy-hissiy rivojlanishida adaptiv va interaktiv texnologiyalarni joriy etish bo'yicha ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilmoqda. Shu bilan



birga, bolalarning o'zini va o'zgalarni anglashi, muloqotga kirishish ko'nikmalarini egallashi, badiiy tasavvur va tafakkurini rivojlantirish, mashg'ulotlarda axborot texnologiyalarini joriy etish, maktabgacha ta'limda nazariya va amaliyot uyg'unligini ta'minlash kabi masalalarga qaratilgan ilmiy-tadqiqot ishlariga alohida e'tibor berilmoqda[5].

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mamlakatimizda maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish, ilg'or xorijiy tajribalarni hisobga olgan holda samarali ta'lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta'limning innovatsion tizimini tashkil etish bo'yicha keng ko'lamli islohotlar amalga oshirilmoqda[7]. Maktabgacha ta'limni rivojlantirish bosqichlari va uning quv-metodik ta'minotini yaratish masalalari bo'yicha respublikamiz, hamdo'stlik mamlakatlari va xorijiy olimlar tomonidan ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari bajarilgan. Jumladan, respublikamizda F.R.Qodirova, H.X.Begmatova, D.J.Sharipova, SH.A.Sodiqova, D.A.Abdurahimova, H.SH.Abdullayeva, M.H.A'zamova, G.A.Berdaliyeva, G.M.Nazirova, I.I.Tuychiyeva, H.I.Rejametova, A.E.Xo'jaqulov, M.H.Xushnazarova, va boshqa olimlar tadqiqotlar olib borgan.

Hamdo'stlik mamlakatlarida YE.A.Avilova, A.Arushanova, M.Bakina, E.Bern, H.A.Vasilyeva, L.M.Volobueva, A.S.Makarenko, H.A.Menchinskaya, YE.Meteleva, YE.Kachmasheva, H.Hyukomb, L.A.Paramonova kabi olimlarning tadqiqot ishlarini keltirib o'tishimiz mumkin.

Xorijiy olimlardan M.Montessori, Jan Piaje, A.Hashfeld, S.Kuger, K.H.Shristiane, H.Gibbons, R.Kramer, G.V.Leonidova, S.Simlesa, Z.Seser, S.Damjan, H.G.Ogelman, va boshqalar tadqiqotlar olib borishgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ijtimoiylashuv jarayoni shunchalik murakkabki, u bir nechta elementlarni o'z ichiga oladi. Maktabgacha yoshdagi bolalik davri - bu kattalar va bola o'rtasidagi aloqalar bola tomonidan juda oson va kerakli bo'lgan vaqt. E.Fromm bolaning shaxsini shakllantirishda oilaviy munosabatlarning muhimligini tasdiqlaydi. "Oila jamiyatning o'ziga xos "psixologik vositachisi" dir, shuning uchun oilada moslashish jarayonida bola xarakterni shakllantiradi, keyinchalik uning jamiyatga moslashishi va turli ijtimoiy muammolarni hal qilish uchun asos bo'ladi." Yu.B. Gippenrayter agressivlikni oilaviy ta'lim uslublari bilan bog'liq holda o'rgangan[8].

Ijtimoiy va oilaviy tarbiyaning kamchiliklari va ijobiy tomonlari E.P.Arnautov va V.M. Ivanovlarning asarlarida o'rganilgan. Mashhur terapevt Virjiniya Satir bolani kuniga bir necha marta quchoqlashni tavsiya qildi. L.N. Tolstoyning yozishicha, bola avlodlarning an'ana va urf-odatlarini ulug'langan, o'tmish, bugun va kelajak o'rtasida uzviylik mavjud muhitdagina shaxs bo'lishi mumkin. Shuningdek, bizning tadqiqotimizda kuzatish, suhbat metodlari, R.R.Kalininaning «Hikoyani tugating», «Syujetli rasmlarni tasvirlash», «O'yinchoqlarni baham ko'ring», «Pedagog-psixologlar axloqiy munosabati so'rovi» metodikasi, M.R.Ginzburgning «Motivatsion tayyorlikni tadqiq qilish», A.Ya.Varga, V.V.Stolinlarning «Ota-ona munosabati so'rovi» metodikalaridan foydalanildi[9].

Tahlil, natijalar va mulohazalar.

Odam bolasining ijtimoiy mavjudot sifatida shaxsga aylanishi uchun ijtimoiy muhit sharoitlari va tarbiya kerak bo'ladi. Ana shular ta'sirida odam inson sifatida rivojlanib boradi va shaxsga aylanadi. Bola shaxsining rivojlanishi inson ijtimoiy mavjudotidir, degan falsafiy ta'limotga asoslanadi. Ayni vaqtda inson tirik, biologik mavjudot hamdir. shaxs bir butun mavjudot sifatida baholanar ekan, uning rivojlanishiga biologik va ijtimoiy qonuniyatlar birgalikda ta'sir etadi, ularni bir-biridan ajratib bo'lmaydi[10]. Chunki shaxsning faoliyati, hayot tarziga yoshi, bilimi, turmush tajribasi bilan birga boshqa fojiali holatlar, kasalliklar ham ta'sir etadi. Inson butun umri davomida o'zgarib boradi. U ham ijtimoiy, ham psixik jihatdan kamolga yetadi, bunda bolaga berilayotgan tarbiya maqsadga muvofiq bo'lsa, u jamivat a'zosi sifatida kamol topib, murakkab ijtimoiy munosabatlar tizimida o'ziga munosib o'rin egallaydi. Sababi, rivojlanish tarbiya ta'siri ostida boradi[11]. Shaxsning fazilatlarini to'g'ri ko'rish va bexato baholash uchun uni turli munosabatlar jarayonida kuzatish lozim. Demak, shaxsni rivojlantirish vazifasini to'g'ri hal etish uchun uning xulqiga ta'sir etuvchi omillar hamda shaxs xususiyatlarini yaxshi bilish zarur[12].

Inson rivojlanishi – juda murakkab jarayon. U tashqi ta'sirlar hamda ichki kuchlar ta'sirida sodir bo'ladi. Tashqi omillarga insonni o'rab turgan tabiiy va ijtimoiy muhit, shuningdek bolalarda muayyan xislatlarni shakllantirish bo'yicha maqsadga yo'naltirilgan faoliyat kiradi. Ichki omillarga esa biologik, irsiy omillar kiradi[13]. Rivojlanish jarayonida bola faoliyatning har xil turlariga jalb qilinadi (o'yin, mehnat, o'qish va boshqalar) va muloqotga kiradi (ota-ona, tengdoshlar, begona kishilar). Bunda u o'ziga



xos bo'lgan faollikni namoyon etadi. Bu muayyan bir ijtimoiy tajribani egallashga yordam beradi. Bola rivojlanishining har bir davri uchun faoliyat turlaridan biri asosiysi, yetakchisi bo'ladi. Bir tur boshqasi bilan almashtiriladi, biroq har bir faoliyatning yangi turi oldingisining ichida yuzaga keladi[14].

Bola tug'ilishidan boshlab normal rivojlanishi uchun muloqot muhim ahamiyatga ega. Faqatgina muloqot jarayonida bola inson nutqini o'zlashtirib olishi mumkin. Bu o'z navbatida bola faoliyatida va atrof-muhitni bilish va o'zlashtirishda etakchi vazifani bajaradi. Shaxs rivojlanishi harakatlantiruvchi kuchlari bo'lib bola ehtiyoji va uni qoniqtirish imkoniyati o'rtasida yuzaga keladigan qarama-qarshiliklar hisoblanadi[15]. Insondagi biologik va ijtimoiy omillar – bu bir-biriga bog'liq bo'lmagan ikki parallel chiziqlar emas. Har bir shaxsda ular shunday chambarchas qo'shilib ketadiki, ularning farqlari shunday turli-tumanki, tadqiqotchilar bola rivojlanishi asosida ikki o'ta muhim bo'lgan omilni irsiyat va muhitni ajratadi. Ular (irsiyat va muhit) inson rivojlanishi manbalari va shartlari hisoblanadi[16].

Biologik va ijtimoiy omillar. Biologik omillar: Biologik irsiyat insonni inson qiladigan umumiylikni hamda insonlarni tashqi va ichki jihatdan turli qiladigan farqlanishni aniqlaydi. Irsiyat bu bolalar genetik dasturiga kiritilgan muayyan xislat va xususiyatlarning ota-onadan bolaga turli xil o'xshashlik, xususiyatlarning o'tishi tushuniladi[17]. Irsiyatga ko'ra bolaga ota-onasidan inson organizmi, asab tizimi, miya va his-tuyg'u organlari, shuningdek, qomat tuzilishi, soch teri rangi o'tadi. Bular insonni boshqa insonlardan ajratib turuvchi tashqi omillar hisoblanadi.

Shuningdek, irsiyat bo'yicha nervfaoliyatini rivojlantiradigan nerv xususiyatlari ham o'tishi mumkin. Irsiyat bolaning tabiiy xususiyatlari asosida biror bir faoliyat sohasida muayyan qobiliyatlarining shakllanishini ko'zda tutadi[18].

Psixologik ma'lumotlarga ko'ra qobiliyat insonning tabiiy xususiyati bo'la olmaydi. Bola qobiliyatlarining namoyon bo'lishi uning hayot, talim-tarbiya jarayonlariga bog'liq.

Hozirgi paytda bola rivojlanishiga ekologik muhit, atmosferaning buzilishi kabi tashqi omillar ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Buning natijasida jismoniy nuqsonli bo'lib tug'ulayotgan bolalar soni ko'paymoqda. Bunday bolalarning muomalaga kirishishi va faoliyat yuritishi nihoyatda og'ir kechadi. Shuning uchun ularga o'qitishning yangi metodlari joriy qilinmoqda va bu metodlar ularning aqliy rivojlanishga erishishlariga yordam beradi. Jismoniy nuqsonli bolalar bilan maxsus pedagoglar shug'ullanishadi. Bu bolalar o'z tengqurlari bilan muomalaga kirishganlarida jiddiy muammolarga duch kelishadi. Bu esa ularning jamiyatga integratsiyalashuvlarini qiyinlashtiradi. Shuning uchun bunday bolalar bilan ijtimoiy pedagogik ish olib borishning asosiy maqsadi bolaga tashqi olam bilan aloqa qilish kanallarini ochishdir[19].

Bola rivojlanishida irsiyat ahamiyati haqida gapirganda irsiy tabiatga ega bo'lgan bir qator kasallik va patologiyalarning mavjudligini e'tiborga olish lozim. Masalan psixik buzilishlar (shizofreniya), qon kasalligi (gemofiliya), endokrin buzilishlar (pakanalik). Ota-onalar alkogolizm va giyohvandlik nasl uchun salbiy ta'sir ko'rsatadi[20].

Tashqi omillar bo'lgan atmosferaning, suvning ifloslanishi, ekologiyaning buzilishi ham bola rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Jismoniy kamchilikli (ko'rlar, karlar, tayanch-harakatlantiruvchi apparatning buzilishi va b) bolalar tug'ilishi ko'paymoqda. Shunday bolalar uchun muloqotda bo'lish jamiyatga "kirish" ancha murakkabdir. Bular bilan maxsus tayyorlangan pedagoglar shug'ullanadi[21].

Ijtimoiy omillar. Inson bo'lib etishish uchun faqatgina biologik irsiyatning o'zi kifoya emas. Inson faqat sotsiolizatsiya jarayonida, ya'ni muloqotda, boshqa insonlar bilan o'zaro ta'sirda shaxs bo'lib etishadi. Inson jamiyatidan tashqarida ma'naviy, ijtimoiy, psixik rivojlanishi sodir bo'la olmaydi. Bu fikrni barchaga ma'lum hollar, ya'ni inson bolasi hayvonlar orasida o'sgani yanada mustahkamlaydi. Ijtimoiylashuv insonning butun hayoti davomida kechadigan ko'p qirrali jarayondir. U ayniqsa bolalik va yoshlik davrida nihoyatda jadallik bilan kechadi. Chunki aynan bolalikda asosiy ijtimoiy me'yorlar o'zlashtiriladi[22].

Bola ijtimoiylashuvida sotsium muhim ahamiyatga ega. Bu ijtimoiy muhitni bola asta-sekinlik bilan o'zlashtiradi. Agar bola tug'ulgandan keyin asosan oilada rivojlansa, uning keying rivojlanishi yangi va yangi muhitlar-maktabgacha ta'lim muassasalari, maktab, maktabdan tashqari tarbiya muassasalari, turli ko'ngilochar maskanlarda kechadi.

Yosh ulg'aygan sari ijtimoiy muhit hududi kengayib boradi. Bola qanchalik ko'p muhitlarni o'zlashtirsa, u shunchalik keng doira hududini egallashga harakat qiladi[25]. Bola doimo o'zi uchun qulay



bo'lgan uni yaxshi tushunadigan, unga hurmat bilan munosabatda bo'ladigan muhitni izlashga urinadi. Shuning uchun u bir muhitdan boshqa muhitga ko'chib yuradi. Muhit bolani shakllantirishda, uning ijtimoiy tajriba to'plashida ijtimoiylashuv jarayoni uchun muhim ahamiyatga ega[26].

Muhit-inson kirishishi, o'zini qulay sezishi uchun joylashuvinigina yetarli bilishi lozim bo'lgan ko'cha, uy va boshqa narsalar emas. Balki, muhit bu alohida o'zaro munosabatlar tizimi va qoidalari bilan xarakterlanadigan inson jamoalari hamdir[24].

Shuning uchun inson muhitga yangilik kiritadi, muayyan darajada ta'sir qiladi hamda o'zgartiradi, va o'z o'rnida muhit ham inson oldiga o'z talablarini qo'yadi. U insonni, uning xatti-harakatlarini qabul qilishi ham inkor qilishi ham mumkin. Muhitning insonga munosabatini insonning yurish-turishi, uning talablariga qanchalik javob berishiga qarab aniqlasa bo'ladi. Insonning xulq-atvori uning jamiyatda tutgan o'rnini bilan belgilanadi.

Bolaning xulq-atvor mexanizmlarini o'zlashtirishi unga ijtimoiy munosabatlarga muvaffaqiyatli moslashuvini ta'minlaydi. Ijtimoiy moslashuv deganda shaxsning ijtimoiy muhit sharoitlariga ko'nikishi tushuniladi. Ijtimoiy moslashuv bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining sharti va natijasi hisoblanadi[23]. Bu asosan uch yo'nalishda olib boriladi :*Faoliyat. Muomala. Anglash.*

Faoliyat-sohasida bolada faoliyat turlarining kengayishi faoliyatning zaruriy shakl va vositalarini qo'lga kiritishi muomala sohasida muomala doirasining kengayishi uning mazmunining chuqurlashishi jamiyatda qabul qilingan xulq-atvor me'yorlarini o'zlashtirish sodir bo'ladi.

Anglash sohasida o'z "men"i obrazini shakllantirish o'zining ijtimoiy mansublik va ijtimoiy o'rnini anglash ro'y beradi. Bu jarayonlarning barchasini tarbiya tartibiga soladi. So'nggi yillarda pedagogika va boshqa fanlarda ijtimoiylashuv hamda tarbiya tushunchalarining o'zaro munosabati keng muhokama qilib kelinmoqda. Jumladan tarbiyaning bola rivojlanishiga ta'siri vaqt o'tgan sari o'zgaradi.

Boshqacha qilib aytganda bola qanchalik kichik bo'lsa tarbiya uning shakllanishiga shuncha ko'p ta'sir ko'rsatadi. Vaqt o'tgani sayin tarbiyaning hissasi kamayib boradi. Biroq boshqa bir jarayon -o'z-o'zini tarbiyalash jarayoni rivojlana boshlaydi. Bu jarayon tufayli bolaning o'z shaxsini takomillastirishi va o'z-o'zini rivojlantirish bo'yicha mustaqil faoliyatini anglatishi ortadi.

Xulosa. Ma'lumki, o'z-o'zini tarbiyalashga ehtiyoj shaxs rivojining eng yuksak shakli hisoblanadi. Tarbiya o'z-o'zini tarbiyalash va boshqa ijtimoiy omillarning (madaniy, diniy, tarixiy an'analar maktab jamoasi, do'stlar, bolalar bog'chasi va boshqalar) ijobiy ta'siri natijasida bolaning jamiyatga integratsiyalashuvining tabiiy jarayoni yuz beradi.

Ijtimoiy moslashuv deganda shaxsning ijtimoiy muhit sharoitlariga ko'nikishi tushuniladi. Ijtimoiy moslashuv bolaning muvaffaqiyatli ijtimoiylashuvining sharti va natijasi hisoblanadi.

ADABIYOTLAR:

1. N. Egamberdiyeva. Ijtimoiy pedagogika. Toshkent-2009
2. L.M. Mardaxaev. Sotsionalnaya pedagogika Moskva, "Prosvetshenie",2006
3. F.A.Mustafaeva, Sotsionalnaya pedagogika Moskva, "Prosvetshenie",2003
4. A.V. Mudrik. Sotsionalnaya pedagogika Moskva, "Prosvetshenie",2005.
5. Норбошева, М. О. (2021). Роль семьи и дошкольной образовательной организации в формировании личности ребёнка. *Наука и образование сегодня*, (7 (66)), 66-67.
6. Норбошева, М. А., & Норбошева, М. А. (2018). Реформы системы дошкольного образования в Узбекистане. In *Фундаментальные и прикладные исследования: гипотезы, проблемы, результаты* (pp. 25-29).
7. Норбошева, М. О. (2020). Мактабгача ёшдаги бола шахсининг ривожланишида мулоқотнинг ўрни. *Педагогика ва психологияда инновациялар*, 9(3), 7.
8. Норбошева, М. О. (2022). МУЛОҚОТГА ЎРГАТИШ БОЛА ШАХСИНИ ШАКЛЛАНТИРИШНИНГ ЎЗИГА ХОС ШАКЛИ СИФАТИДА. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, 5(4).
9. Norbosheva, M. A. (2021). Problems of personal formation of the child in the family in the studies of scientists of Uzbekistan. *Asian Journal Of Multidimensional Research*, 10(6), 297-303.
10. Норбошева, М. (2020). МАКТАБГАЧА ЁШДАГИ БОЛАЛАРНИНГ МУЛОҚОТ ЖАРАЁНИДА ПСИХИК ВА ШАХС СИФАТЛАРИНИНГ РИВОЖЛАНИШ ХУСУСИЯТЛАРИ. *Педагогика ва психологияда инновациялар*, 11(3).



11. Norbosheva, M. (2020). Issues of moral perfection and spiritual height in the poem of “Kutadgu Bilig” by Yusuf Has Hadjib. *European Journal of Molecular & Clinical Medicine*, 7(2), 2020.
12. Norbosheva, M. Rivojlantiruvchi erkin faoliyat markazlarini tashkil etish va uning ahamiyati. O ‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O ‘RTA MAXSUS TA ‘LIM VAZIRLIGI NIZOMIY NOMIDAGI TOSHKENT DAVLAT PEDAGOGIKA UNIVERSITETI, 219.
13. Qodirova, A. (2023). TA ‘LIM JARAYONIDA TERMIZIY FIKRLARIDAN FOYDALANISHNING ILMIY-NAZARIY MASALALARI. " ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал, 1(3).
14. Qodirova, A. (2023). IMOM AT-TERMIZIY SHAXSINING PSIXOLOGIK-PEDAGOGIK VA FIKRLARINING QIYOSIY-ANALITIK JIHATLARI. " ПЕДАГОГИЧЕСКАЯ АКМЕОЛОГИЯ" международный научно-методический журнал, 1(3).
15. Qodirova, A. (2022). УЛУФ МУҲАДДИС ИМОМ АТ-ТЕРМИЗИЙ ФАОЛИЯТИНИНГ ПСИХОЛОГИК ЖИҲАТЛАРИ. *Science and innovation*, 1(B7), 1086-1090.
16. Kodirova, A. B. (2022). PSYCHOLOGICAL AND PEDAGOGICAL ASPECTS OF THE USE OF THE MYSTICAL IDEAS OF AL-HAKIM AT-TERMIZI IN THE EDUCATIONAL PROCESS. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(12), 1281-1286.
17. Kodirova, A. B. (2022). ANALYSIS OF PSYCHOLOGICAL VIEWS IN THE WORKS OF AL-HAKIM AT-TERMIZI ACCORDING TO THE SCIENTIFIC CONTENT AND THE THEORY OF SUFISM. *Web of Scientist: International Scientific Research Journal*, 3(12), 1287-1292.
18. Қодирова, А. Б. (2019). The views of Al Khakim At-Termizi on the theory of cognition. *Psixologiya*, (1), 88-90.
19. Қодирова, А. Б. (2022). АБУ АБДУЛЛОҲ МУҲАММАД ИБН АЛИ ҲАКИМ ТЕРМИЗИЙНИНГ “ОҚИЛЛАР ВА АЛДАНГАНЛАР” АСАРИДА НАФС ТАРБИЯСИНИНГ ПСИХОЛОГИК ОМИЛЛАРИ. *Science and innovation*, 1(B3), 119-124.
20. Turaeva, G. E. (2022, February). Some aspects of educating students to become highly qualified and competitive personnel. In *Conference Zone* (pp. 163-165).
21. Turaeva, G. E. (2021). Improving the efficiency of the educational process using computer technology. *ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal*, 11(8), 407-410.
22. Turaeva, G. E. (2021). The effectiveness of the use of computer technology in the educational process. *Asian Journal of Multidimensional Research*, 10(8), 90-93.
23. Turayeva, G. (2023). COMPUTER DIDACTIC GAMES IN ORGANIZING THE EDUCATIONAL PROCESS. *World Bulletin of Social Sciences*, 23, 70-72.
24. Turaeva, G. E. (2021). PERSON-CENTERED TECHNOLOGY OF COLLABORATIVE EDUCATION. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PEDAGOGICS*, 2(08), 68-71.
25. Салохитдинова, Н. (2021). Development prospects of primary education integration (on the example of exact and natural sciences). *Общество и инновации*, 2(7/S), 221-225.
26. Salokhitdinova, N. M. (2020). PROVIDING MEMBERSHIP BETWEEN TESTING AND INTERNATIONAL ASSESSMENT PROGRAMS FROM PRIMARY SCHOOL MATHEMATICS (An example of elementary school math). *Scientific and Technical Journal of Namangan Institute of Engineering and Technology*, 2(12), 14-19.